



SHIXMASHHAD SHAHARCHASI TARIXI

Shomurotov Otojon

Urganch innovatsion universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" tarix fani

o'qituvchisi

Ibrohimova Mehriniso

Urganch innovatsion univversiteti 24/01 Tarix(kunduzgi)ta'lim yo'nalishi 1-

kurs talabasi

O'zbek tilida:

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanida joylashgan Shixmashhad shaharchasining tarixiy-etnografik o'rni yoritiladi. Xususan, XVI asrda Eronning Mashhad shahridan kelgan Said Mirmuhammad Aziz va Said Shafoat Azizlarning hayoti, diniy-ma'naviy faoliyati, ular qurdirgan maqbaralarning me'moriy xususiyatlari hamda "Imorat bobo" qabristoni bilan bog'liq rivoyatlar asosida Shixmashhad toponimikasining shakllanishi tahlil qilinadi. Maqola tarixiy manbalar bilan bir qatorda og'zaki xalq ijodini ham ilmiy tahlilga tortadi.

Abstract. This article explores the historical and ethnographic significance of the settlement of Shixmashhad, located in the Qo'shko'pir district of the Khorezm region. It focuses on the arrival of Said Mirmuhammad Aziz and Said Shafoat Aziz from Mashhad (Iran) in the 16th century, their religious and spiritual contributions, the architectural features of their mausoleums, and legends associated with the "Imorat Bobo" cemetery. The study combines historical sources with oral folklore to present a comprehensive view of Shixmashhad's development and cultural identity.

Аннотация. В данной статье рассматривается историко-этнографическое значение поселения Шихмашхад, расположенного в



Кошкूपырском районе Хорезмской области. Особое внимание уделено жизни и духовной деятельности шейхов Саида Мирмухаммада Азиза и Саида Шафоата Азиза, прибывших из Мешхеда (Иран) в XVI веке, архитектурным особенностям их мавзолеев, а также легендам, связанным с кладбищем «Иморат бобо». Исследование сочетает исторические источники с устным народным творчеством для всестороннего освещения истории и культурной идентичности Шихмашхада.

Kalit so‘zlar: Shixmashhad, Said Mirmuhammad Aziz, Said Shafoat Aziz, Xorazm, toponimika, maqbara, “Imorat bobo”, og‘zaki rivoyatlar, islom, etnografiya.

Key words: Shixmashhad, Said Mirmuhammad Aziz, Said Shafoat Aziz, Khorezm, toponymy, mausoleum, “Imorat Bobo”, oral legends, Islam, ethnography.

Ключевые слова: Шихмашхад, Саид Мирмухаммад Азиз, Саид Шафоат Азиз, Хорезм, топонимика, мавзолей, «Иморат бобо», устные предания, ислам, этнография.

Xorazm vohasi qadimdan Markaziy Osiyoning siyosiy, madaniy va dini hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. Ayniqsa, bu hududdagi qishloq va shaharchalarning shakllanishi, ularning nomlanishi, diniy shaxslar va tarixiy obidalar bilan bog‘liq bo‘lganligi hudud tarixini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanida joylashgan Shixmashhad shaharchasi o‘zining noyob diniy-ma’naviy merosi, tarixiy shaxslar maqbaralari va og‘zaki rivoyatlarga boy bo‘lganligi bilan e’tiborni tortadi. Xorazmning boy tarixi va din va ilm fanning mushtarakligi haqida Beruniy quyidagi fikrni bildirib o‘tgan “Xorazmda har bir qadamda tarix va e’tiqod



birlashadi, chunki bu yurt qadimdan ilm, din va urf-odatlarini mujassam etgan zamin bo‘lgan”.¹

Ushbu maqolada Shixmashhad toponimikasining kelib chiqishi, bu qishloqqa islom dini targ‘iboti maqsadida kelgan shayxlar — Said Mirmuhammad Aziz va Said Shafoat Azizlarning hayoti va faoliyati, ular qurdirgan maqbaralarning arxitektura xususiyatlari, shuningdek, mahalliy aholi ongida shakllangan rivoyatlar asosida vujudga kelgan “Imorat bobo” qabristoni haqida ma’lumotlar bayon etiladi. Maqola voqeliklarni faqat tarixiy manbalar asosida emas, balki og‘zaki xalq ijodi orqali yetib kelgan dalillar yordamida ham yoritishga harakat qil adi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Shixmashhad shaharchasining tarixiy-etnografik xususiyatlarini o‘rganish, undagi diniy shaxslar faoliyatining ijtimoiy hayotdagi o‘rnini aniqlash va bu orqali Xorazm tarixining o‘rganilmagan jihatlarini ilmiy muomalaga kiritishdan iborat.

Shixmashhad qishlog‘i nomi XVI-asrda Eronning Mashhad shahridan 2ta shayxlar ya’ni 1.Xazrati Said Mirmuhammad Aziz 2.Xazrati Said Shafoat Aziz islom dinini yoyish maqsadida Amudaryodan o‘tib u yerda o‘trimli bo‘lib, Urganch-Xiva magistral yo‘lini 15 km.da g‘arda joylashgan Shixmashhad shaharchasiga kelib o‘rnashadilar. Qishloqning nomi ham shundan “Shayxmashhad”, ya’ni “Mashhad shayxlari”dan kelib chiqqan. Shuni ham aytib o‘tish lozimki Said Mirmuhammad Aziz,Said Shafoat Azizlarning silsilasi Xazrati Ali(r.a)va Xazrati Fotima onamiz(r.a) orqali payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v)ga borib taqaladi.Payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v)ning shajarasiga ko‘ra Said Mirmuhammad Aziz(1748) 31-avlod, Said Shafoat Aziz(1795) 32-avlodi. Hozirgi kunda shayxlarni maqbaralari Shixmashhad shaharchasi Zarbdor mahallasidagi

¹ Беруний Абу Райхон. *Osor-ul-boqiya* (Abadiy yodgorliklar haqida). – Toshkent: Fan, 1998. 27-bet



“Imorat bobo”qabristonida joylashgan.Said Mirmuhammad Aziz maqbarasi 3 ta gumbaz iborat bo‘lib, 2 ta xona katta gumbaz ostida joylashgan ziyoratxona va uning orqasida joylashgan 2 ta kichikroq gumbazli xilxonadan tashkil topgan.²Maqbaraning o‘ymakor eshikida uning qurilgan vaqti 1262 hijriy yil (1848 milodiy)o‘yib yozilgan. Bu maqbaradan 50 metr shimoliy-sharqda Said Shafolat Aziz maqbarasi joylashgan.Ikkita gumbazdan iborat bu maqbara ham ziyoratxona va xilxonadan iborat.O‘ymakor eshikka qurilgan davri 1270 hijriy yil (1795 milodiy yil) tushirilgan.Maqbaralarning o‘lchamlari 11,2 x 6 metrni tashkil qiladi. Maqbaralar katta peshtoqqa ega bo‘lib uning gumbazi ortiqcha bezaklarsiz qurilgan.Faqat oldingi tarafidagi g‘ishtlarga o‘yma naqshlar qo‘yilgan.Said Mirmuhammad Aziz maqbarasi 1995-yilda Rahim ota Bobojonov boshchiligida Xorazm tarixiy obidalarni himoyalash jamoat fondi tomonidan ta’mirlangan. Maqbaralar katta peshtoqqa ega bo‘lib,uning gumbazini o‘z ortida yashirib turadi. Maqbaralar kamtarona ortiqcha bezaklarsiz qurilgan,faqat oldingi tarafidagina g‘ishtlarga o‘yma naqshlar qo‘yilgan.³

“Imorat bobo” qabristoni to‘g‘risidagi rivoyat. Hozarasp tumanida “Ismoil eshon bobo”qabristoni bor. Shu rahmatlik bobomiz hayotining oxirgi paytlarida shunday vasiyat qilgan. ”O‘g‘lim mening vaqtim tugab qoldi.Vaqt kelib olamdan o‘tsam mening janoza namozimni bir qora ot mingan,qora do‘nli bir kishi kelib o‘qishi kerak.Shu kishi kelguncha janoza namozini o‘qimay turinglar”-degan.⁴

² Raximov A. *Xorazmda islom dini tarixi va muqaddas qadamjolar*. – Urganch: “Hilol nuri” nashriyoti, 2012. 25-b

³ Tohirov I. *Islom tarixida avliyo-shayxlar va ularning silsilasi*. – Buxoro: Markaz, 2015.

⁴ Turaev M. *O‘zbek xalqining diniy e‘tiqodlari va muqaddas joylar haqidagi rivoyatlar*. – Toshkent: “Fan va turmush”, 2005. 57-b



U kishi olamdan o'tgandan keyin oradan 3 kun o'tganda Xiva xoni aytadiki:”shu bugun peshin namozidan keyin otangizni mayitini chiqaringlar endi janoza o'qimasa bo'lmaydi.Odamlar kutib qoldi”-dedi.Hamma janoza namoziga saf tortadi.Shu paytda g'oyibdan odamlar oldida qora ot mingan qora do'nli inson paydo bo'ladi.Xon va ulamolar qulluq qilib ulug' bobomiz janozasini u kishiga o'qitadilar.Shundan so'ng xon ulug' pirimizni etagidan tutib:”Sizdek ulug' ulamolar Xorazm xalqiga kerak”-deydi.

Xon pirga murojaat qilib:”Yo mendan xonlikni oling yoki Xorazmdan biror bir yerni mulk qilib oling va shu yerda yashang”- deb iltimos qiladi.Bir necha kun o'tib u kishi Xiva xoni huzuriga borib undan o'z yurtiga qaytishiga ruxsat so'raydi. Xon u kishiga e'tiroz bildirib ketib qolishiga ko'nmaydi. Shunda u kishi “Mening yengimda bir qushim bor, shu qushni Xivadan uchiramiz va qayerga qo'nsa shu yerni oxiratimizga imorat qilamiz”-deganlar.

Qushni uchirganda u hozirgi Qo'shko'pir tumani O'zbekiston shirkat xo'jaligidan o'tgan Urganch Xiva yo'li bo'yidagi tolga qo'ngan ekan.Shu yerda u kishining muborak qabrlari mavjud,shu qabriston “Imorat bobo”qabristoni deb yuritiladi.

U kishi qush qo'ngan joydan:”Qushni yana bir marta uchiramiz”-deganlar.Qush kunchiqar tomonga qarab uchadi va Xiva-Urganch yo'lidan 3 km uzoqlikdagi bir gujumga qo'nadi. Qush qo'ngan joyda bir beva ayol yashar ekan. Bobomiz o'sha ayolga murojaat qilib:”Bizni tangri mehmon qilg'il, shom namozini o'qib olaylik”-desalar, “U ayol men sizlardan qo'rqaman”, deb ko'nmaydi. Shunda bobomiz beva ayolni duo qilibdilar.

Beva ayol: “Allohni hikmati bilan men sizlarni tushunmabman, endi uyim ham jonim ham sizlarniki”- deb o'z roziligini bildiribdi. Shu kechadan boshlab shu joyda Allohni uyi masjid qilamiz va o'zlarimiz yashaymiz”- deganlar. Ayoldan bu yerlarni sotib olib masjid qurishni boshlaganlar.



Masjid qurilishida qosh yog‘och o‘lchab ko‘rilganda kalta keib qolgan. Shunda ustalar: “Eshon bobo qosh yog‘ochlardan bittasi yetmay turibdi”- deb aytadilar. Eshon bobo aytadilarki: “Sizlar bir ovqatlanib olib, keyin yana bir marta o‘lchab ko‘rasizlar”.Ustalar ovqatlanib bo‘lib o‘lchab ko‘rsalar, qosh yog‘och endi yetadigan bo‘lib qolgan edi.

Shunda Said Mirmuhammad Aziz bobomizga odamlarning ixlosi oshgan va “Qora qopi”masjidiga va bobomiz huzuriga dardlariga davo istab kelguvchilar ko‘paygan.

Said Mirmuhammad Aziz bobomiz haqida rivoyat. Xorazm xonligi davrida davlatning mablag‘idan saidlarga, karomatli avliyolar darajasida bo‘lgan islom dini peshvolariga nafaqa ajratmalari bo‘lar ekan. Shu ajratmalar uchun keyinchalik xonning mablag‘lari yetishmay qolgandi. Shunda xonning bir vaziri shunday maslahat bergan: “Bu saidlarni, avliyo darajali ulamolarni bir sinovdan o‘tkazsak. Ulardan karomatliklarini ko‘rsatgan kishilarga nafaqa beramiz, qolganlariga bermaymiz”,-deydi. Butun Xorazm xonligi bo‘ylab ro‘yxatda bor Said, Eshon va Ulamolarni ma‘lum bir kuni Xivaga yetib kelishlari buyurildi. Natijada bunday nafaqa oluvchilardan 5000 dan ko‘proq kishi yig‘iladi. Xon yig‘ilganlarga o‘z shartini aytadi. “Mana g‘isht pishiriladigan xummuz, shuni ichida taxminan 4 kishi sig‘adigan joy bor. Agar kimda kim hikmatim bor deb hisoblasa shu xummuz ichiga kirib o‘tiradi. Biz xummuzni berkitamiz va o‘t yoqamiz. G‘isht pishguncha uch kun o‘t yoqiladi, keyin ochamiz. Ushbu hummuzdan hikmat bilan saqlanib qolgan kishilarga nafaqa beramiz”-deb shartini qo‘yadi. Xon yana aytadiki: “Xummuzdan tirik chiqqan kishi Xorazm xonligida hurmat-izzatli va imtiyozlarga



ega bo‘ladi”,- deydi. Xonning so‘zlarini eshitgan kishilar: “Bizga imtiyoz va nafaqa kerak emas”,- deb qaytib ketadilar.⁵

Said Mirmuhammad Aziz bobomiz esa, endi bo‘lmaydi - deb Allohga iltijo qilib duo qiladi. Shunda u kishining so‘fiysi: ”Siz duo qilib turing, men siz uchun xummuza kirib o‘tiramani”,-deydi. Bu gapni xonga aytganlarida u rozi bo‘ladi. Bobomizni so‘fiylari xummuza ichiga kiradilar bobomiz esa tashqarida duo qilib o‘tiradilar. Xon tomonidan qo‘yilgan kishilar 3 kun davomida xummuza o‘t yoqib g‘ishtni pishiradilar. Xummuza ochib ko‘rilganda bobomizning so‘fiysi qip-qizil xo‘rozday bo‘lib o‘tirgan ekanlar. Shunda bobomiz Said Mirmuhammad Aziz so‘fiysiga “Jon xo‘roz bobo”- degan tahallus qo‘ygan ekanlar. Bu hodisani ko‘rgan xon Said Mirmuhammad Aziz bobomizga tasonno – degan ekanlar.

Xulosa qilib aytganda, Shixmashhad shaharchasining tarixi, toponimikasi va diniy-ma’naviy merosi Xorazm vohasining boy va sarmazmun o‘tmishidan dalolat beradi. XVI asrda Eronning Mashhad shahridan Xorazmga kelgan Shayx Said Mirmuhammad Aziz va Said Shafolat Azizlarning islom dini targ‘iboti yo‘lida olib borgan faoliyatlari nafaqat diniy balki ijtimoiy-ma’naviy hayotda ham muhim o‘rin egallagan. Ularning maqbaralari arxitekturasi, xalq orasida saqlanib qolgan rivoyatlar, “Imorat bobo” qabristonining paydo bo‘lishi haqidagi og‘zaki hikoyalar bu hududning o‘ziga xos tarixiy-etnografik xususiyatlarini yoritadi.

Maqolada keltirilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, Shixmashhad nafaqat diniy markaz, balki xalq e’tiqodi, tarixiy xotira va og‘zaki ijod uyg‘unlashgan muqaddas maskan sifatida shakllangan. Shayxlarning avlodlari, ularning sadoqatli so‘fiylari

⁵ Xorazm Ma’mun akademiyasi. *Xorazmning tarixiy yodgorliklari* // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Urganch: Akademiya nashriyoti, 2020.



va mo‘jizaviy hodisalar bilan bog‘liq rivoyatlar bu hududda din, ilm va xalq urf-odatlarining uyg‘unligi mavjud bo‘lganini yaqqol namoyon etadi.

Shunday qilib, Shixmashhad shaharchasining o‘rganilishi nafaqat Xorazmning diniy va madaniy tarixiga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi islom tarixi va xalq og‘zaki ijodining tahliliga ham salmoqli hissa qo‘shadi. Bu esa yurtimizdagi diniy merosni asrash, o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беруний Абу Райхон. *Osor-ul-boqiya* (Abadiy yodgorliklar haqida). – Toshkent: Fan, 1998.

2. Xorazm Ma‘mun akademiyasi. *Xorazmning tarixiy yodgorliklari // Ilmiy maqolalar to‘plami*. – Urganch: Akademiya nashriyoti, 2020.

3. Raximov A. *Xorazmda islom dini tarixi va muqaddas qadamjolar*. – Urganch: “Hilol nuri” nashriyoti, 2012.

4. Ibragimov M. *Xorazm vohasining o‘rta asr arxitekturasi // “Sharq me‘morchiligi” jurnali*. – 2019. – №2.

5. Turaev M. *O‘zbek xalqining diniy e‘tiqodlari va muqaddas joylar haqidagi rivoyatlar*. – Toshkent: “Fan va turmush”, 2005.

6. Tohirov I. *Islom tarixida avliyo-shayxlar va ularning silsilasi*. – Buxoro: Markaz, 2015.

7. O‘zR FA Tarix instituti. *Xorazm tarixi qadimgi davrdan to hozirgacha*. – Toshkent: “Sharq”, 2014.

8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shixmashhad>